

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

5-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 5/5 (5) - 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

**22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:**

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

**23.00.00- SIYOSIY FANLAR**

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Abdullaev Ulug‘bek Saydanovich</i> O‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR .....	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i> BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO‘RIQLASH, QOROVULLIKNI O‘TASH VA XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH MASALALARI TAHLILI .....	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i> ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ .....	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i> O‘ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI .....	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i> THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR .....	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo‘minov Nodirbek Botir o‘g‘li</i> IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI .....	43-48

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Исламтудинов Вадим</i> СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i> BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i> ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i> ME‘YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI.....	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i> YURIDIK TA‘LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo‘raev Anvar Muxamadiyevich</i> IJTIMOIIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI .....	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i> ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i> ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i> O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i> SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI .....	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i> ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Axmedova Dilbar, Shavkatova Shirin</i> ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyevna</i> EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Muqutova Dilafruz</i> IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i> TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i> ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS .....	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i> FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i> TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI .....	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i> BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA .....	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i> FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i> ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i> THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE" .....	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i> SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i> HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
<i>Kamola Hatamova</i> HUUJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	207-210

## **12.00.00 - YURIDIK FANLAR**

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i> PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGAMA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI .....	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i> METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE .....	217-222
<i>Mutalipova Lola Farxhadovna</i> SMART-KONTRAKTY I BLOKCHAYN: VYZOVY DLYA DOGOVORNOGO PRAVA V RESPUBLIKE UZBEKISTAN.....	223-234
<i>Normurodova Aziza Azimjon kizi</i> PRAVOBOE REGULIROVANIYE SEKSUALNOGO NASILIYA S ISPOLZOVANIEM .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloevna</i> RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....	242-246

## **13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI**

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i> MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI.....	253-261
<i>Davydova Ruffina Arturovna</i> ROL' GUMANNOY PEDAGOGIKI V PREODOLENIYE AGRESSII I OTCHUZHDENIYA SREDI SHKOL'NIKOV .....	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i> OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI .....	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i> DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI: O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i> TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i> MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i> IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI .....	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i> TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI .....	296-301

**Received:** 2 June 2025  
**Accepted:** 15 June 2025  
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

## **THE IMPORTANCE OF NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF YOUTH**

**Yusupaliyev Orzimurod Odilovich**

Gulistan State Pedagogical Institute  
Department of “National Ideology and Philosophy”  
Senior Lecturer  
E-mail: [orzumurodyu85@mail.ru](mailto:orzumurodyu85@mail.ru)

**Abstract.** The article tells about examples of folklore, epics, songs, sayings, proverbs and proverbs created by our ancestors throughout the history of our people. The way of life of our people reflects the processes of using such traditional values created by our ancestors. Instead, with the help of reasoned considerations, the role and significance of these national values in the upbringing of the younger generation is explained.

**Keywords:** custom, value, tradition, saga, story, proverb, song, charity.

---

## **YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI**

**Yusupaliyev Orzimurod Odilovich**

Guliston davlat pedagogika instituti  
“Milliy g‘oya va falsafa” kafedrası  
Katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada millatimiz tarixi davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, dostonlar, qo‘shiqlar, iboralar, maqol va matallar haqida so‘z boradi. Xalqimiz turmush tarzida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bunday urf-odatga aylangan qadriyatlardan foydalanish jarayonlari aks ettirilgan. O‘z o‘rnida bu milliy qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati asosli mulohazalar vositasida yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** urf-odat, qadriyat, an‘ana, doston, matal, maqol, qo‘shiq, baxshichilik.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N16>

### **KIRISH**

Asrlar osha turli ko‘rinishlarda saqlanib kelgan o‘tmish haqidagi bilimlar ertangi kun uchun zarur xulosalar chiqarishga zamin yaratadi. Millatning o‘tmish haqidagi tasavvurlari milliy til, urf-odatlar, tarixiy janrdagi badiiy adabiyot, maqollar, dostonlar, tarixiy qo‘shiqlar va xalq og‘zaki ijodining boshqa shakllari, joy nomlari kabi ma‘naviy, arxitektura yodgorliklari, nodir kitoblar, qo‘lyozmalar, buyumlar kabi moddiy madaniyat shakllarida mujassamlashgan milliy tarixiy xotira haqida ham shunday deyish mumkin. Bunda albatta, moddiy va ma‘naviy madaniyat o‘rtasidagi farq nisbiyligini va ularni aslo mutlaqlashtirib bo‘lmasligini unutmaslik lozim. Moddiy madaniyat insonning ma‘lum bir g‘oyalari, bilimlari, maqsadlarining namoyon bo‘lishidir. Ayni paytda har qanday ma‘naviy madaniyat mahsuli ham obyektivlashuvi, o‘zining moddiy ifodasini (yozuv, nutq, rasm, haykal va h.k. shakllarda) topmog‘i lozim [Shermuhamedov S., Ochildiev A., 2000, 10 b.]. Obyektivlashgan moddiy va ma‘naviy madaniyat

elementlari esa, subyektiv shakldagi milliy tarixiy xotiraning u yoki bu qatlamlarining aktuallashuvining muhim manbai hisoblanadi.

Ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan tarixiy janrdagi badiiy adabiyot, o'zida millatning kechmishini, dardu-hasratini, quvonchu-iztiroblarini, tafakkur tarzini aks ettiradi. Ushbu janrdagi asarlarda insonga muhabbat, o'zaro mehr-oqibat g'oyalarining ustuvorligi millat hayotida beqiyos pozitiv ahamiyat kasb etsa, g'ayriinsoniy g'oyalar, o'tmishni yuzaki yoritish kabi xususiyatlar ustunligi millatni jaholatga, o'zligidan adashishga yo'l ochadi. Bu "Adabiyot- atomdan kuchli" [Abdulla Qahhor. Yon daftardan qaydlar. 1989 y, 262 b.],-degan fikrning o'rinli ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqotlarning ta'kidlanishicha, " ... tarixiy mavzudagi badiiy asar o'z g'oyasi, voqealar, personajlar, makon va zamon nuqtai nazaridan hamma vaqt tarixiylik mezoni darajasida bo'ladi" [O'zbek folklori ocherklari. 256 b.]. Shu jihatdan ham, bunday asarlar kishilarda o'z tarixini o'rganish va to'g'ri baholash, o'tmish tajribasidan zarur xulosalar chiqarishga undaydi. Eng asosiysi, ular o'z obrazlari orqali millat tarixiga bag'ishlangan fundamental ilmiy asarlardan farqli o'laroq tarixiy xotiraning o'sishi, takomillashishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

### **MATERIALLAR VA METODLAR**

Tarixiy janrda yozilgan badiiy adabiyotlar tarix, ajdodlarning hayot yo'li, ularning ko'rsatgan jasoratlarini yoritish orqali ibrat namunasiga aylangan. Millat tarixiy xotirasini uyg'otuvchi muhim omilga aylanib boradi. Bu o'rinda, A.Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", Oybekning "Navoiy", H.Olimjonning "Muqanna", O. Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", P. Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Humoyun va Akbar" kabi tarixiy janrdagi badiiy asarlari va ular asosida yaratilgan filmlar, spektakllar bilan millatimiz tarixiy xotirasi o'sishida muhim rol o'ynagan. O'z o'rnida tilimizda uchraydigan "uyat bo'ladi", "yomon bo'ladi", "odamga andisha kerak," kabi bir jumla bilan butun boshli millatning mentalitetini aks ettirishi, o'zining mazmun-mohiyati bilan axloqiy-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan juda teran ma'nolarni anglatadigan iboralar shakllangan.

Qadimdan, bu so'zlar ota-bobolarimiz tomonidan farzandlarni tarbiyalash uchun ular nojo'ya xatti-harakat qilganda ishlatilgan. Yoshlarimiz uchun shu birgina so'z ularning o'zlarini tuzatishi uchun, boshqalar oldida o'ylab so'zlashi, har ishni yetti o'lchab qaror qabul qilishi uchun yetarli hisoblangan.

Ularning qimmatini aniq bir tarixiy shaxs yoki davrga bog'lanmagan. Ma'lum davrga xos bo'lgan hayot va tafakkur tarzi, urf-odat va an'analar, xalqning madaniyati haqidagi yaxlit tasavvur hosil qilishga yordam berishi bilan ham belgilanadi [A. Achildiev., 1997, 109 b.].

Hozirgi kunda yuqoridagi kabi adabiyotlarni mutolaa qilish yoki ajdodlar tomonidan shakllangan maqol va matallar, iboralarni o'z o'rnida qo'llash yoki asarlar bosh qahramoniga taqlid yuzaga kelishi asno har bir yosh avlodning individual ongi rivojlanishi kuzatiladi. Ajdodlarga, ularning faoliyati, xatti-harakatiga nisbatan hurmat, o'rnak olish hissi uyg'onadi. Shaxsda "Men kimman?", "Biz kimmiz?", — degan savollarga javob topish imkoniyati vujudga keladi.

### **ASOSIY QISM**

Millatning kechmishi, dardu-hasratlari, iztiroblari, o'y-xayollari, orzu-umidlari aynan xalq og'zaki ijodi, maqola, matal va iboralarda o'z ifodasini topgan.

Xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lgan, unda keng ko'lam kasb etadigan dostonlar ham shular jumlasidandir. Dostonlar uzoq tarixiy ildizlarga va etnoslar tarixini

anglashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgani bois doimo tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlarda "...Dostonlar uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tadi. Doston asosida xayoliy uydirma yotadimi, konkret o'tmish voqealari tasvirlanadimi, bundan qat'iy nazar, xalqning qahramonona o'tmishi sifatida talqin qilinadi va shu tarzda qabul qilinadi" [O'zbek folklori ocherklari., 1988 y. 78 b.],-degan qarashlarni o'qiymiz. Masala mohiyatiga chuqurroq yondashilsa, dostonlarning kuchli emotsional ta'sir quvvatiga egaligini ham anglash mumkin.

Dostonlar epiklikka moyil bo'lgani uchun ham kishilar hayotining turli jabhalari, qolaversa milliy taraqqiyotning turli bosqichlarini qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek xalqining "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Ravshan va Zulxumor", "Oshiq G'arib va Shohsanam", qirg'iz xalqining "Manas" kabi xalq dostonlari millatning bebaho ma'naviy yodgorligi hisoblanadi. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, o'zaro mehr-muhabbat, el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi, ulus manfaatlari yo'lidagi mardlik, jasurlik, qahramonlik namunalari o'zining falsafiy-axloqiy talqinini topgan ushbu dostonlar orqali millatning asl qiyofasini va taraqqiyot yo'lini chuqurroq va yaqqolroq tasavvur qildiradi.

Turkiy xalqlar orasida juda keng tarqalgan ushbu janr milliy o'ziga xoslik kasb etadi. Dostonlarning haqqoniyligi, hissiy va tarbiyaviy kuchi baxshilar tomonidan ijro etilganda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Doston ijrosini kuzatgan holda kuylanayotgan voqealar, davrning o'ziga xos xususiyatlari baxshilar orqali juda ta'sirchan qilib etkazib berilishini anglash mumkin. Bu dostonlardagi she'r va kuyning omixtalashuvi natijasi bo'lib, aynan shu jihat ularning ta'sirchanligini oshiradi. Mana shu jarayonda baxshilar bir vaqtning o'zida ham yozuvchi-shoir ham musiqachi-bastakor sifatida namoyon bo'ladilar [U.Karabaev., 1991 y, 26 b.].

Lekin har doim ham xalq og'zaki ijodining targ'ib etilishi, qolaversa baxshilar faoliyati ijobiy baholanmagan. Yaqin o'tmishda xususan mashhur Baxshi Qurbonnazar Abdullaev (Bola baxshi)ning 1933-1940-yillar mobaynida doston va maqomlariga "o'tmish sarqitlari", — degan tamg'a bosilganligi fikrimizning isboti bo'la oladi [Pravda Vostoka. 1989 g.1 fevral]. Shunday taqiqlarga qaramasdan millatimiz qon-qoniga singib ketgan, tarixiy xotirasidan keng o'rin tutgan muhim manba sifatida o'z dostonlarini saqlab qola oldi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarining fundamental ilmiy tahlili ularga xos bo'lgan spetsifik xususiyatlarni aniqlash imkoniyatini beradi. Unga ko'ra xalq og'zaki ijodi yashovchanligining asosiy xususiyati, ularda ajdodlarning asrlar qa'ridan bizgacha etib kelgan boy hayotiy tajribalarining yoshlarga yetkazilishi, eng muhimi o'zidan keyin shogirdlar qoldirish an'anasining mavjudligidir [U.Karabaev., 1991 y, 28 b.], - degan xulosaga kelindi. Dostonlardagi aynan shu xususiyat millat tarixiy xotirasida o'tmish haqidagi bilimlarning uzilishlarsiz, izchil holda avlodlararo o'tib borishini, vorisliyigini ta'minlaydi. Bu jarayonda tarixiy bilimlar, orttirilgan tajribalar, chiqarilgan xulosalar ustozlardan shogirdlarga o'tib, ularning yashovchanligini ta'minlaydi.

Beruniy "Kitoblarni xotirada saqla, ularni faqat yig'a bermagin. Chunki kitoblarga ham qiron keladi. Olov ularni yondiradi, suv g'arq etadi, sichqonlar kemiradilar, o'g'ri o'g'iraydi" [Beruniy., 1974 y, 129 b.], -deb ta'kidlagan edi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalq og'zaki ijodining o'lmasligining yana bir jihati uning aynan og'zaki holda avloddan-avlodga yetkazilishidir. Bu shaklda saqlangan bilimlar, manbalar, ma'lumotlarni hech kim tortib olmaydi, millat xotirasida abadiy muhrlangan holda saqlanib kelaveradi.

Xalq og'zaki ijodining yana bir ko'rinishi bo'lgan, ko'pincha xalqning hayotida yorqin iz qoldirgan voqealar, tarixiy shaxslar kuylanadigan tarixiy qo'shiqlar ham milliy tarixiy xotirada muhim o'rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, "...tarixiy qo'shiq termini ostida tarixiy-siyosiy voqea-hodisalar yoki real shaxslar faoliyati bilan bevosita aloqador qo'shiqlar nazarda tutiladi" [O'zbek folklori ocherklari: 1-jild, 1988 y, 254 b.].

Ushbu janrdagi qo'shiqlarning ahamiyati ularning real ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning intihosi ekani bilan belgilanadi. Sodda qilib aytganda, paydo bo'lishiga ham ana shu omillar sabab bo'lishini qayd etish lozim. Boshqacha aytganda, "Ming la'nat", "Qarg'alar uchsa qaraylik, Marg'ilonning yo'liga", kabi tarixiy qo'shiqlarni tinglash orqali kishilarimiz o'sha davrning suronli voqealarini, ma'naviy-ruhiy muhitini, insonlar taqdiri va kechinmalarini ko'z oldida tasavvur etadi. Mustaqillik va so'nggi yillarda yaratilgan vatan madhini kuylash, ona yurtning ulug'lash mavzularidagi qo'shiqlar, xalqimizning mustahkam irodasini, bukilmaz qaddini badiiy ifodalab beradi desak xato emas.

Bu janrdagi qo'shiqlarning yaratilishi asosida millat ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan voqea-hodisalar yotadi. Sodda qilda aytganda, bu qo'shiqlar kuchli emotsional ta'sirning aksadosi sifatida namoyon bo'ladi. Millat xotirasida muhrlanib qoladi. Xalq og'zaki ijodining muhim elementlaridan biri bo'lgan tarixiy qo'shiqlar o'tmish haqidagi tasavvurlar, bilimlar, histuyg'ularni avlodlararo tashiydi. Ularni o'rganish, bevosita tarixni bilishga imkoniyat yaratib, bugungi tinch-osuda hayotning qadriga etish tuyg'usini rivojlantiradi.

Xalq og'zaki ijodining muhim elementi bo'lgan, kishilik jamiyatining ko'p asrlik hayotiy tajribasi asosida shakllangan, pand-nasihat mazmunida obrazli va qisqa hikmatli xulosalarda ifodalangan maqollar ham milliy tarixiy xotirada o'ziga xos o'ringa ega.

Maqollar, ularning kelib chiqish tarixi xar doim olimlar diqqatini jalb etib kelgan. Uning mohiyatini o'rganishga undagan. Shunday tadqiqotlardan birida, "Maqol xalq og'zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlaridan biri bo'lib, u xalqning ko'p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan. Asosan keng xalq ommasining dunyoqarashini ifodalaydi" [O'zbek folklori ocherklari: 1-jild, 1988 y, 85-86 bb.], -degan talqin mavjud.

Shu sababdan ham maqollar sanjib bo'lib, so'zlar har doim uzukka ko'zdek jilolanib turadi [T. Yoqubov., M. Yoqubova., 2004 y, 80 b.], -degan fikrlarni o'qiymiz. Demak "...maqollar juda kam o'zgarib, uzoq umr ko'radi" [X.Jumaeva., 1980 y, 3 b.], — degan fikr ham yuqoridagi mulohazalarga mos xulosa.

Ushbu fikrlar maqollarning o'zida o'tmish tajribasini ifodalashi va ularning uzoq tarixga egaligidek qirralari ochib berilganini ko'rish mumkin. Maqollar xalq tarixiy tajribasining o'ziga xos quyushgan ifodasi sifatida o'tmish haqida ma'lum bilimlar, ajdodlarning turmush tarzi, dunyoqarashi haqidagi axborotlarning muhim tashuvchisi hisoblanadi. "Bir marta og'zi kuygan qatqni ham puflab ichadi", "Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi", — kabi maqollar nafaqat alohida olingan shaxsning kundalik-hayotiy tajribasi, balki umummilliy ahamiyat ham kasb etib o'tmishning "achchiq" tajribasidan saboq beradi. "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", "Kuch-birlikda" kabi maqollar ahillik va birdamlikning qudrati, tarix va taqdirni belgilashdagi o'rni haqidagi hikmatli xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Maqollar o'z mazmun mohiyatiga ko'ra hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi.

## XULOSA

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan xalq og‘zaki ijodi bizning ongu-shuurimizga singib, tarixiy xotiraga, urf-odatga aylanib ketganligini ko‘rishimiz mumkin. Maqollar, matallar, dostonlar, ibratli fikrlar, purma‘no o‘g‘itlar insonlarni qanday yashashga o‘rgatishini ko‘rishimiz mumkin. Qiyin damlarda odamlarga dono maslahatchi, hamdard, murabbiy va ruhiy-ma‘naviy madadkor bo‘lib xizmat qiladi. Negaki ular ming yillarning mahsuli, ruhiy qadriyat, bebaho ma‘naviy boylik sifatida qadimgi davrlar bilan hozirgi zamoni birlashtirib turuvchi oltin xalqdir [P.Bakirov., 2004 y, 98-99 bb.] - deyish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarda aksariyat hollarda u yoki bu xalq ijodiyotining yuqoridagi kabi ko‘rinishlarining ayrimlari qachondir, qayerdadir, kimdir tomonidan qaysidir voqea munosabati bilan birinchi marta aytilgani xususida bahslar hamon bo‘lib turadi. Bu esa xalqimizning milliy-ma‘naviy xazinasini teranligini, ularni yana ming yillar davomida o‘rganish mumkinligini anglatadi. Boshqa tomondan ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida vujudga kelgan achchiq yoki ijobiy tajribani o‘zida mujassamlashtirgan voqea-hodisalardan to‘g‘ri, aniq va ishonchli xulosalar asosida yosh avlodni tarbiyalash jarayonida bizga qo‘l keladi deb aytishimiz mumkin.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdulla Qahqor. Yon daftardan qaydlar. Abdulla Qahor. Asarlar. 5-jildlik. Xak so‘zning kuchi. Maqolalar. Suhbatlar. Qaydlar.-T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989 y. 5-jild. 262 b.
2. Anikin V.P. Russkie narodnye poslovitsi, pogovorki, zagadki i detskiy folklor.-M.: 1957 g. - S. 10.
3. Achildiev A.S. Dialektika natsionalnogo samosoznaniya i natsionalnoy kultur!.-T.:Universitet, 1997 g. - S.109.
4. Bakirov P.U. Mesto poslovits! sredi drugix vidov paremiy.G‘G‘ Ilm sarchashmalari. 2004 y, 2-son. 98-99 bb.
5. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar,6-jild.-T.: 1974 y. 129 b.
6. Yoqubov T., Yoqubova M. Nemis-o‘zbek maqollari tipologiyasiga doir ayrim kuzatishlar. G‘G‘Ilm sarchashmalari. 2004 y, 4-son. 80 b.
7. Jumaeva X. Folklor va tarbiya.-T.: O‘qituvchi, 1980 y. 3 b.
8. Karabaev U.X. Traditsionnoe narodnoe tvorchestvo: problemo‘ vozrojdeniya i razvitiya.-T.: Fan, 1991 g.- S. 28.
9. Karabaev U.X. Traditsionnoe narodnoe tvorchestvo: problem: vozrojdeniya i razvitiya.-T.: Fan, 1991g , -S. 26.
10. Pravda Vostoka.-1989.-1.fevral
11. O‘zbek folklori ocherklari. 3 jildlik.-T.: Fan, 1988 y. 1-jild. 78-92-254-256 bb.
12. Shermuhamedov S., Ochildiev A. Madaniyat va tsivilizatsiya.-T.: Farg‘ona, 2000 y. 10 b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).